

TONG YULDOSI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

Nº 21 (66302)
2001 yil 25 may, juma

Sotuvda erkin narxda



Nega tahsinlamay yurakdan yonib,
Nega ta'zim etmay sizga bu mahal.
Nega xizmatning qilmay quvonib,
Ey aziz muallim, ustodi avval.




YANGI ASRNING ILK QALDIRG'OCHLARI

Bu misralar o'tgan yili 25 may kuni so'nggi qo'ng'iroy kechasida yangragandi. Dil so'zleri aytilib bo'lgach, qo'limda bir dasta gul bilan sinf rahbarimiz Ra'no opaning bag'irlariga otildim. Ko'zimdan beixtiyor yosh oqa boshladi.

Quvonch va qayg'u yoshlari qorishib, vujudimni allanechuk hayajon o'z hukmiga bo'ysundirgandi. Ra'no onaning ko'zlarida ham yosh ko'rib, hayajonim yanada ortdi. Ularning issiqqina quchoqlaridan chiqqim kelmasdi. Yuragimning bir chekkasi bo'shab qolayotganday edi. Bu bo'shlinqi to'ldirib turadigan sinf rahbarimizni yonlaridan

uzoqda bo'lishga majburman endi. Ularning shirin so'zlarini, og'ir-vazmin, bosiqlik bilan uqtiradigan o'gitlarini, yaxshilikka undovchi tanbehtarini har kuni eshitma olmayman... O'tgan yili biz uchun oxirgi marta jaranglanan qo'ng'iroyning ovozi bugun yana minglab uka va singillarimiz uchun ham so'nggi bor yangrayapti. O'z



sadolari ostida yana qanchadan-qancha o'quvchilarini mustaqil hayotga kuzatib, ularga oq yo'l tilamoqda. Mana shunday hayajonli va quvonchli damlarda ustozlarimiz va bitiruvchilarimiz qalbidan nimalar kechdiykin? Keling, yaxshisi bu haqda ularning o'zlarini hikoya qila qolishsin.

MAKTAB -O'Z UYING

Bu yil maktabimizni huquqshunoslik, informatika, matematika va kimyo yo'naliishlari bo'yicha to'rtta 11-sinf bitiradi. XXI asrning ilk qaldirk'och bitiruvchilar. Ular mening rahbarligimdag'i dastlabki bitiruvchilar hamdir. O'quvchilarimning hammasi bir-biridan yaxshi, ulardan ajralish qiyin, ammo nachora. Umr o'taveradi. Birin-ketin qaldirk'ochlar ham bu dargohdan uchirma bo'ladilar. Ko'zlarda yosh bilan ularga oq fotiha berishdan o'zga ilojim yo'q. Ular o'ylagan niyatlariga yetishsin, omad yor bo'lsin. Mustaqil O'zbekistonning yetuk farzandlari bo'lib yetishishsin. Bergan ilmimizni oqlashsin. Xuddi hozirgidek keyinchalik ham ulardan faxrlanib yuraylik. Ikkinci uylariga aylangan bu muqaddas dargohni, ularga faqat yaxshilik tilagan ustozlarini hech qachon unutishmasin, deyman.

Gulnoza MUZAFFAROVA,
Toshkentdagi 41-maktab
rahbari.

САЛОМ, ҲАЁТ!

Ҳаётимда асл имтиҳон,
Вужудимда интилиш, имкон,
Сендан илм қидирдим бутун,
Мактаб, сени битирдим бугун!

Үн еттида ёшгинам ҳозир,
Ҳаёт энди эмас унча сир.
Қайди бўлмай, мен сени мақтаб,
Кўп миннатдор юарман, мактаб!

Ҳаёт китобидан сиз тинмай,
Дарс бердингиз ҳеч бир эринмай.
Раҳмат сизга азиз устозлар,
Пок дил сизни мангу эъзозлар!

Очилимаган кўзлар очилган,
Йўлларимга гуллар сочиликан.
У гулларнинг бўйлари кўхна,
Ўйинлари, куйлари кўхна!

Ҳар бир юрак янгилар ишқни,
Кечириб ёз, баҳорни, қишини.
Устозларим сабогин олиб,
Яшарман бу йўлларда голиб.

Руҳим тетик, кўнгил беҳал шод,
Салом сенга мустақил ҳаёт.
Вужудимда жўшар ҳаяжон,
Сен яхшисан, мактаб, жонажон!

Сен яхшисан, содда ва камтар,
Юрак ёзилмаган оқ дафтар.
Унга сенинг соғинчинг ёзиб,
Кетаяпман эшикни очиб.

Ястангандир олдинда тоғлар,
Очилимаган ўрмонзор боғлар.
Сўқмоқ йўлдан қўшиш, айриши
Аро кетсан бирдан қайрилиш...

Кўпайтирув, бўлув, ва яна
Гап бўлаги қилас тантана.
Қовоқ солиб, Паскаль ўқи, дер,
Юрагимни Машраб юки ер.

Ломоносов, Менделеев, Бобур,
Юмалоқ ер, бардошу сабр...
Қайтар дунё турфа ишин ҳам,
Биламан, мен ёр ташвишин ҳам!

Она мактаб, жонажон мактаб,
Бутун умр мен сени мақтаб.
Кўп қайтаман катта ҳаётга,
Шайланиб сен берган саводга.

Умида АБДУАЗИМОВА.

SHOGIRD KAMOLINI KO'RISH ISTAYMIZ

Men nima ham derdim. Hayajondan so'zlarim ham chalashib ketayotganday. Bitiruvchilarga oq yo'l tilayman, xolos. O'ylagan niyatlariga yetib, kelajakda katta insonlar bo'lishlariga ishonaman. Biz ularni unutmagandek, ular ham bizni yodda saqlashsin. Yana bir bor barcha bitiruvchilarga omad tilayman.

Ha, bu kun har bir bitiruvchi va ustoz ko'nglidan har xil o'ylar kechyapti. Ammo hammaning maqsadi bir. Ustozlar shogird kamolini ko'rishni istaydi. Bitiruvchilar esa oliy o'quv yurtlariga kirishni. Vatanga xizmatlari tegadigan insonlar bo'lib yetishishni istashadi. Iloyim barcha o'z niyatiga yetsin. XXI asrning ilk qaldirk'ochlari, sizga omad yor bo'lsin.

Vazira ODIROVA, o'qituvchi.

Zilola ABDUSAMATOVA - bitiruvchi.

Men do'stlik haqida gapirmoqchi edim. Qiz bola katta bo'lishi bilan o'ziga sirdosh, qalbiga yaqin insonni qidiradi. Bunday inson dugona deb ataladi. Qiz bola gohida onasiga aytolmagan gaplariga dugonasi bilan sirlashadi. Ikki yaqin dugona bir-birining og'ir kunida ham, yomon kunida ham birga bo'ladı. Shunday insonlarni haqiqiy do'st deb atash mumkin. Menimcha, haqiqiy do'stlik maktab vaqtida boshlanadi va haqiqiy do'stni ko'pchilik maktabdan topadi. Shunday do'stlarni endi topdim deganda ulardan ajralib qolayotgandayman. Do'stlarimni hech qachon unutmayman. Ularga sodiq bo'lishga va'da bergan holda ko'zlarimda yosh bilan ulardan ajralishga majburman. Sababi, oldinda meni mustaqil hayot va katta ishlar kutmoqda.

Nozima ASQAROVA - bitiruvchi.

Sakkiz yil shu maktabda o'qidim. So'ng ota-onamning diplomat ishlari bo'yicha yil Turkiyadayashadi. U yerdan qaytganday so'ng 11-sinfga, yana dugonalarim oldiga qaytdim. Ammo eng achinarlisi va qiziqarlisini u yerdagi insonlarning bir-birini chaqirishlari menga singib ketdi. Bu yerga kelgach, dugonalarimning ismini aytib emas, «alo», «sht» deb chaqiradigan bo'ldim. Ular esa menga boshqa nomenga tushdingiz, deb javob qaytarishardi. Endi-endi ularning ismini aytib chaqirishga o'rgandim.

Toshkentdagi 41-maktabdan
O'zMU jurnalistika fakulteti 1- kurs talabasi
Adibaxon RAHMATULLAYEVA tayyorladi.

Muyassar ABDULLAYEVA -bitiruvchi.

O'n bir yil shu maktabda bilim oldim. Endi esa mustaqil hayot ostonasida turibman. Bu har bir bitiruvchi uchun hayajonli va so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan damlar bo'lsa kerak menimcha. Sevimli maktabimiz, ustozlarimiz, do'stlarimiz, hattoki o'tirgan partalarimiz, kitoblarimiz ham biz uchun qadrli. Ularning qadriga endi yetayotgandayman. Ustozlarimizning gohida achchiq, gohida ma'noli so'zlarini eshitish men uchun armon bo'lib qoladi. Endi, buni faqatgina maktabni bitirganlar va bitiruvchilar his eta oladilar. Shu o'rinda o'zimdan keyingi yosh avlodga maktab, ustozlar, do'stlarining qadriga yetishsin, deyman. Sababi, bu damlar qaytmaydi va unutilmaydi.

**SHABNAM**


Maysalaru chechaklarni
shabnam o'pdi,
Gul bargini erkelaydi shabbodalar.
Bargak taqqan qirq
kokilli suluq qizlar,
Baland qirda, ajib sirli shivirlashar.
Davra qizib laparlardan
xo'p aytdilar,
Toqqa qochgan hatto lola,
gul ochildi.
Bahoroyim bisotidan
nishonalar -
Har yurakda yulduzmiyo,
nur sochildi.
Bahor keldi!

*Gulmira RAJABOVA,
Qashqadaryo viloyati.*

**MUMLANGAN HAYKALLAR KO'RGAZMASI**

Yaqinda ukam ikkimiz O'zbekiston Davlat San'at muzeysi tashkil qilingan «Mumlangan haykallar» ko'r gazmasida bo'ldik. Sankt-Peterburgdan kelgan mehmonlar muzey zallarini turli qiyofadagi haykallar bilan bezashdi. O'z davrining ilg'or kishilari, sarkardalar, aktyorlari, afsonaviy qahramonlari, rekordchilari va hatto zamondoshlarimiz

Pyotr I, Ivan Groznyi, Charli Chaplin, Vladimir Putin, Yakubovich, Bil Clintonlarni ham uchratdik.



qiyoqasini ham aks ettiruvchi bu mehmonlar «tilsiz» bo'lsalar-da, ko'p narsalarni so'zlayotgandek edilar.

Mum haykallar orasida Janna Dark,

HUQUQINGIZNI BILASIZMI?

Yaqinda ana shu mavzuda tumanimizdag 35-maktabda ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Biz 5-maktab o'quvchilari maktabimiz sharafini himoya qilish, ustozlarimiz mehnatlarini oqlash uchun bu bellashuvda ikki marotoba ishtirok etdik.

Shaxsan meni bu galgi musobaqa unchalik qoniqtirmadi. O'quvchilarning sahnada o'zlarini tutishlaridan ranjidim. Buning ta'siri, oiladagi tarbiyami yoki maktabdagi muhitimi, bilolmadim.

*Dilfuza AHMADJONOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
Mubor Yo'idosheva nomli 5-tayanch maktabining
9- «B» sinf o'quvchisi.*

YAQIN DO'ST

Bir kuni uyimiz kutubxonasi dagi kitoblarni taxlab, tartibga keltirayotsam, ular orasidan ustki varaqlari yo'q, elliginchi betlardan boshlangan bir kitob topib oldim. Kitobning nomini bilish uchun mundarijasidagi sarlavhalarni o'qib chiqdim. Bilişimcha «Odobnom» ekan. Kitobning boshi bo'lmasa ham menga juda yoqib qoldi. Undan insoniy fazilatlar, odob-axloq, do'st-birodarlar bilan qanday muomalada bo'lish kerakligi, ota-onasi va ona-Vatanga fidoiylik tuyg'ularini yanayam chuqur o'rgandim.

Yana bir jihat, chekish va giyohvand moddalar va spiritli ichimliklarning zararini yorqin misollarda ko'rsatib berilgan. Unda bir o'spirinning shu yo'liga kirib ketgani, buning oqibatida ko'plab nojo'ya harakatlarni qilgani, natijada o'zi aqli zaif bo'lib qolgani haqida hikoya qilinadi.

Menimcha o'spirinning fojeali taqdirini o'qigan o'quvchi o'z hayotini bunday bo'lishini istamaydi. Va giyohvand moddalarini iste'mol qilishdan qochadi. Mana shunday yomonliklarning boshlanishi e'tiborsizlik, bekorchilikdan kelib chiqishiga yana bir bor ishondim. Ba'zan o'zim tengi o'spirin yigitlarning lablariga qistirib olgan sigaretalarini ko'rib, qo'liga shu kitobni tutqazgim keladi. Shunday ham qildim.

Yozgi ta'tilimiz ham boshlandi. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ko'proq bo'ladi. Istardimki, ular o'z vaqtlarini foydali, unumli yumushlar bilan band qilsalar.

*Sherzod TO'LAGANOV,
Yangiyo'l tumanidagi Q.Abdullayev nomli
maktabning 9- sinf o'quvchisi.*

**BUVIJONIM, SIZNI QO'MSAYDI YURAK**

Kuz kunlarining biri.

Uyimiz yonidagi paxtazorda mehnatkashlar oq oltinni mehr bilan terishar edi. Shu kuni men matabdan erta qaytdim. Barcha uy yumushlarimni qilib bo'lgan edim. Bir mahal tog'am kelib, dabdurustdan dadamlarni olib ketdilar. Sababini bilsak, mehribon, men uchun aziz bo'lgan buvijonimning toblari qochib qolgan ekan. O'sha kuni buvijonim ammamlarnikida edilar. Shu kuni men uchun hayot tugagandy bo'ldi, xuddi tush ko'rayotganga o'xshardim...

Buni qaranki, oradan olti yil o'tsa ham buvijonimning boshlarimni silab erkashlari, har tongda sochlarimni mayda o'rib, piliklar taqib qo'yishlari, qoshlarimga o'sma qo'yishlari hamon yodimdan chiqmaydi. Ularни doimo sog'inamiz, o'gitlarini hech qachon unutmaymiz.

*Kunlar o'tdi, yo'q halovat,
Sizsiz menga yo'q orom.
Tushlarimga kirib goho,
So'z qotasiz, buvijon.*

*Orzigul HAYDAROVA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumani,
«Oq oltin» jamoa
xo'jaligidagi G'isht qishlog'i.*

Haykallarning qanday tayyorlanishi bilan qiziqdik. Hikoya qilishlaricha, ularning yuzlari asalarining mumiga yelim qo'shib tayyorlanar, ko'zlar shishadan yasalar, soch va kiprikleri esa tabiiy ekan. Birgina haykalni tayyorlash uchun mohir tikuvchi, qo'li gul haykaltarosh, iste'dodli rassom, qo'yingchi, 14 kishining mehnati sarf bo'larkan. Biz mumlangan haykallar bilan esdalik uchun suratga ham tushdik.

*Nargiza RIXSIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
3-maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.*



*Hurmatli tahririyat xodimlari, salom
tengdoshlar! Keling tanishaylik. Men -
Dildoraman. Yoshim 10 da, kichkina
bo'lsam-da, orzuim bir olam.*

*Umidim o'zimdan
katta.*

*Adabiyot va
san'atni menchalik
hech kim sevmasa kerak.
Bilasizlarmi, yurgan yo'limda
qo'shiq kuylayman, raqsga tushaman,
yana she'rlar yozaman. O'zim haqimda
boshqa nashrlarga ham yo'llagan
edim. «Gulxan»ga esa bir nechta
she'rlarimni jo'natgandim. Biroq hech
bir sonida meni xursand qiladigan
sahifani ko'rmadim. Ehtimol xatim
yetib bormagandir. Ushbu maktubimni
sizga yo'llar ekanman, men kutgan
quvonchli daqiqalarga oz fursat
qolgandir degan umiddaman.*



*Dildora IBRAGIMOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz
shahridagi 1-o'rta maktabning
3-sinf o'quvchisi.*

SUHBAT

Bir kun ertalab turib,
Rustamjon oyisiga
Bir savol berib qoldi:
-Oyi, aytin-chi, menga
Men qachon tug'ilganman?
Va qanday ulg'ayganman?
-Hozir erkatoyniganam,
Senga javob beraman.
Bir kuni uyg'a kirib,
Ko'rpacha olay desam,
Bir kichkina chaqaloq
Jilmayib yotar edi.
Sekingina ko'tarib,
Peshonasidan o'pib,
Bag'rimga bosib oldim,

Rustam qo'ydim ismini.
Xursand bo'lib Rustamjon,
Chopqillab o'ynab ketdi.
Kechqurun uyg'a qaytib,
Ko'rpachaga o'tirdi.
Qarasa bir qo'ng'izcha
O'rmalab kelar edi.
Rustamjon olib qo'liga,
Oyisiga yugurdi.
Oyisi dedi: - O'g'lim,
Buni nima qilasan?
-Oyijon ko'rpachadan
Qo'ng'izni topib oldim.
Endi esa o'zimga
O'g'ilcha qilib oldim.



**Anvar
ЙҮЛДОШЕВ:**

Паркент тумани пурви-кор тоғлар, ям-яшил бөглар билан ўралган. Унинг шарқираб оқиб турган сойларига ўхаш гўша дунёнинг ҳеч бир нуқтасида бўлмаса керак. Мен болалигимда уйимзни, маҳалламни ва қишлоғимнигина дунё деб ўйлардим. Аста-секин улғайтаним сайнин жоннинг кенглигини англадим. Бироқ, киндиқ қоним тўкилган она тупроқ мен учун доимо азиз. Тасаввурим кен-гайгани сари ватанимга бўлган муҳаббатим ҳам орта боряпти. Зоро, ватанга муҳаббат тўйгуси инсонда ёшлигиданоқ шаклана боради. Бу меҳр дараҳти бир кун келиб ширидан-шакар мевалар бериши мумкин. Чунки Ўзбекистон менини, бизни, ҳаммамизни!

Шоиста АҲМАТОВА:

Мен Абдулла Ориповнинг "Тилла балиқча"си каби дунёни тор ҳовузча деб билиб ўтишни истамайман. Менинг доимо ўргангим, ўқигим, ўқигим ва анлагим келади. Жуда қизиқувчалигим боис ҳам вақтдан унумли фойдаланишга ҳаракат қиласман. Қўшимча дарслар тинглаб, янада билимимни чархлаб, мактабни тамомлаганимдан сўнг олий ўкув юртларига ўқишга кирсам, дейман. Чунончи, билимли инсон ўз ақлу заковати билан ҳар ерда обрў топади. Ҳозирда бизга яратилаётган имкониятлар бисёр. Мен ҳам шундай имкониятлардан фойдаланиб, имтиҳон ва синовлардан ўтиб, чет элларга таҳсил олиш учун бормоқчиман.



**Aziza
САЛИМОВА:**

Дипломат инсонларнинг кўркини биласизми? Улар ўзини тутишда, сўзлашишда, муомала ва юриш-туришда ҳаммага намуна бўладилар. Айниқса, дипломатик кийиниш ҳам санъатdir. Мен Дипломатия университетига ўқишга кириб, келажакла дипломат бўлмоқчиман.



**Бекзод
ШАЙДУЛЛАЕВ:**

Ривоят қилишларича, тангри энг аввало ерни яратибди. Кейин турли миллиатларга мансуб инсонларни яратибди. Уларга ерни тақсимлаш мақсадида ҳузурига чорлабди. Бошқалар қатори ўзбек ҳам ер олиш илинжида тантри ҳузурига этиб борибди. Инсонпарвар, сертакаллуп, меҳмондўст ўзбек ўзидан кейин келган миллиат вакилларини ҳам ўзидан аввалга ўтказиб юбораверибида-да, энг охирги бўлиб ўзи кирибди. Шунда тангри:

-Эй, бандам, нега кеч қолдинг? Ҳаммага ерни бўлиб бериб бўлдим-ку. Сенга қолмади, -дебди.

-Эй, олампаноҳ, мен ҳам сизнинг ҳузурингизга биринчилардан бўлиб келган эдим. Бироқ, бошқа дўстларимни ўтказиб юбораверибман, -дебди ҳижолатлик билан.

-Шунда ўзбекнинг сахиyllигига қойил қолган яраттан эгам:

-Балли, мен сенга заҳирамда сақлаб қўйган энг яхши жаннатмакон ерни бергум, - дебди. Жаннатмакон диёрни ўзбекка тортиқ қилибди.

Ҳа, ватаним ҳақида гапирадиган бўлсан, қофоз ва қаламнинг қудрати стмайди. Мен ана шундай юртим учун қўлимдан келган барча хизматларни бажаришга тайёрман.

**Тошпўлат
ФАЙЗИЕВ:**

Мен ТДШМИ билим юргига ўқишга кирмоқчиман. Чунки орзуим шифокор бўлиш. Инсонларни даволаш билан бирга уларнинг ҳаётини сақлаб қолишини ўзимга катта шарап деб биламан.



BITIRUVCHILAR, SO'Z SIZGA!

*Мана, сўнгги қўнғироқ чалиниб,
мактаб бағридан яна бир гуруҳ бити-
рувчилар учирма бўлмоқдалар. Оппок
орзули ва пок ниyatli ёшларимиз олдида
юксак мақсадлар турибди. Барчанинг
юрагида, қалбидаги ёнаётган умид учқун-
лари кўзларидан билиниб турибди.
Бугун бизнинг меҳмонимиз Тошкент
вилояти, Паркент туманинда 27-ўрта
мактабнинг 11-синф ўқувчилари. Ҳа,
улар катта ҳаёт остоносида турибди-
лар. Сиз ҳам уларнинг гапларига, фикр-
ларига бир қулоқ тутинг-а. Эҳтимол,
ёшларимиздаги гайрат-шижоат сизни
ҳам ажаблантира.*

*Биз битирувчиларнинг орзулари
ушалишида, келажакда ўз ўрниларини
топишга тилакдошимиз.*

**Фарҳод
НОРАЛИЕВ:**

Мен адабиётга қизиқчиман. Асосан ўзбек ёзувчиларининг асарларини мутолаа қиласман. Бироқ, менинг фикримча, адабиётдан ташқари табиий фанларни ҳам мукаммал билмоқ даркор. Шунинг учун ҳам ҳозирда алтебора ва инглиз тилидан қўшимча дарслар тингляпман. Агар орзуим ушалиб, Иқтисодиёт олийгоҳига ўқишга кирсам, келажакда банкда ишлардим. Менинг ниyatим, Ўзбекистондаги банклар ҳам Швецария банкларидек дунёга танилгай.



**Дилфуза
ПИРМАТОВА:**

Шифокор сўзининг асл маъносини биласизми? Ҳа, мен ҳар қўнгилга, ҳар қалбга шифо олиб кирмоқчиман. Балки қайсиидир маънода ҳалоскор бўлмоқчиман. Десам муболага бўлмас. Шифокорлар худди шамчироқдек бўлишаркан. Шам атрофга ёргулак баҳши этиб, ўзи аста сўниб боради. Агар ниyatимга этиб, шифокор бўлсан, албатта ўз қишлоғимда ишлайман.



**Ақида
ОРТИҚОВА:**

Мен ҳунармандчиликка меҳр қўйганман. Бичиши-тикиш, пазандачилик, саранжом-саришталик - аёллар қўркилир. Қандай касб эгаси бўлмасин, қизларимиз шу ҳунарларни ўзида мужассам қўлмоғи даркор деб ўйлайман.



**Лариса
АҲМЕДОВА:**

Катта танаффусга қўнғироқ чалинди. 27-ўрта мактабнинг ўқувчилари мактаб ҳовлисига йиғилишди. Барча интизорлик билан радио - карнайига қулоқ тутиб туришибди.

"Ассалому алайкум мактабимизнинг меҳрибон устозлари ўқвноқ ва шодон ўқувчилар.



FM 27 радио тўлқинларида 9-11- синф ўқувчилари интизорлик билан кутаётган "Алла" кўрик танлови голибларини ёшиттирамиз. Диққат қилинг. Учинчи ўрин 9-синф ўқувчиларига насиб этди. Иккинчи ўринни 11-“А” синф ўқувчилари олди. Фахрли биринчи ўрин совриндорлари 11-“Б” синф ўқувчилари. Биз сиз азизларни мусиқий салом орқали муборакбод этамиз дея, сухандон Севара". Биз ҳар куни катта танаффусда ҳаво мавжларида мактаб радиосини тинглаймиз. Унинг режиссёри Камолиддин aka Мухсиддинов бўладилар. Бизларга қизиқарли хабар ва ёшиттиришларни, мусиқий лаҳзаларни тақдим қиладилар.

Бир неча кундан кейин биз учун мактаб бетона бўлиб қолади. Биз албатта шундай лаҳзаларни кўмсаймиз. Ҳар дақиқаси олтин даврим билан хайрлашгим келмаяпти.

**Дилдора
ИРНАЗАРОВА:**



**ҲАЙР
СИНФДОШ**

Хайрлашув онидаги қадринг билинди, Сендан айримлоққа етмади бардош. Илк севинчим бугун сўзга илинди, Хайр она мактабим, хайр синфдош.

Бугун кетаяпмиз катта йўл сари, Оқ йўл тиланг бизга, азиз устозлар. Берган билимингиз албатт оқдаймиз, Энди кутар бизни улкан даргоҳлар.

Сенда менинг сирим, сенда хаёлим, Сендадир илк севгим, сен менга сирдош. Сен-ла фахрланиб юрарман ҳар он, Хуш қол, сўлим гўша. Хайр синфдош.

**Чарос
АҲМЕДОВА:**

Негадир ўқитувчиларни ҳақидаги фикрларга ёшларимиз сусткапшилк билан ёндошадилар. Надафат ёшлар, балки катталар ҳам баъзан: "Ўқитувчи бўлиб нима қиласан? Асабинг ишдан чиқади. Ўқитувчилик қандай шон-шуҳрат келтиради?" дейишиади.



Мен ундей фикрларга умуман қаршиман. Чунки ўқитувчиларни ҳар ким ҳам уддалай олмайди. Менинча ўқитувчининг машақатли меҳнати, масъулияти юқори таҳсинга лойиқдир. Болаларга янтиликни ўргатиш, билим билан куроллантириш ҳар кимнинг ҳам қўлидан келавермайди. Мен мактабдан ўқувчи бўлиб кетар эканман, яна шу масканга ўқитувчи бўлиб келиш ниyatим бор.

*Саҳифани
Озода ТУРСУНБОЕВА
тайёрлади.*



"Бити рувчининг кийимини кийишни доим орзу қилас эйм ва ва ниҳоят эришдим".

мени ҳам руҳлантириб юборди.

1982 йил 8 апрелда гўзал Андижонда зиёли оиласда таваллуд топган Нодирбек тенгдошлири орасида болалигиданоқ ажralиб турарди. У 43-мактабда




"Айова штати сенатори Ганский билан жуда ҳам қизиқарли сұхбат қурдик".

аъло баҳоларга ўқиш билан бирга турли тўғракларга, спорт клубларига борарди. Шунингдек, инглиз тилидан чукур таҳсил олиши мақсадида қўшимча дарсга ҳам қатнарди. Ўшанда пойдевор кўйтган билими Нодирбекка аскотди. У 1997 йил кузда АКСЕЛСнинг мактаб дастури

Циркдаги масхарабозларга ўхшаган номаълум мавжудотлар бутун дунё бўйлаб оғир касал ётган ва жон берадиган болаларга ёрдам кўрсатишмоқда. Далилларнинг гувоҳлик беришича, уларнинг кўмаги натижасида гўдаклар шифо топаяти.

Бу мўъжизавий шифо билан Рим Папаси Павлус II нинг ўзи шахсан қизиқиб қолди. Одатда мўъжизалар илоҳий



кучлар натижасида юз беради. Башарасини минг хил рангга бўяган, ғалати кийинган, вазифаси одамларни кулдиришдан иборат бўлган масхарабозларни ҳам улар тоифасига киритиб бўлармикин? Балки буларнинг бари иблиснинг найрангларидир? Ҳар қалай, 1990 йилнинг бошларидан тортиб, АҚШдан Хитойгача бўлган ҳудудда сирли мавжудотлар ўзини масхарабозлар қиёфасида намойиш қилган 6200 дан зиёд ҳодиса қайд этилган. Масалан, Лондонда тақвадор одамлар бу ҳодисани олимлар ёки черков изоҳлаб беришини кутиб ўтирамай, илоҳий мўъжиза деб баҳолашмоқда. Сирли масхарабозлар қаердан пайдо

"Мен тагин чет элларга борса-му, у ерда му-каммал таъ-

лим олиб, илм ўрганиб, ма-лақа ошириб келиб, кела-жакда Ўзбе-кистонимда и шла са м, дейман".

Нодир Абдуллаевнинг холис нияти мени ҳам руҳлантириб юборди.

ликдан сўнг Американинг Айова штатидаги Винтерсет шахрига парвоз қилди.

- Мени аэропортда тарбиявий ишлар бўйича мактаб раҳбари ўринбосари кутиб олди. Биринчи таассурутларимни сўзлайдиган бўлсан, вақт етмайди. Ўзим учун бир дунё янгиликларни кашф қилдим. Атрофдагилар билан дўстлашишга, яқиндан танишиши



"Умримдаги биринчи Halloween базмida, илк бор қўрқинчли қовоқ ясатганимда, менинг ошқовогим энг зўр бўлиб чиқиб, совга ҳам олдим".

га ҳаракат қилдим. Америкадаги мактаблар 12 йиллик бўлиб, уч даврдан иборат экан: бошлангич, ўрта, олий, - дейди Нодирбек, - Олий давр ҳам ўз навбатида маълум цикларни ўз ичига олади. 9-синф - Freshmen, 10-синф - Sophomore, 11-синф - Junior, 12-синф - Senior. Аввалига мени 11-синфга қабул қилишди.

Мен эса хавотирга туша бошладим. Чунки мактабни тамомлашм керак эдида. Ундан кейин чет элда таҳсил олгандан кейин албатта юртимга диплом билан қайтишим керак деб ўйлардим. Шунинг учун ҳам мактаб директори, яъни Superintendent билан гаплашмоқчи бўлдим. У ерда ўзига хос тартиблар бор.

бўлиб қолишини ҳеч ким билмайди, лекин улар дунё бўйлаб минглаб болаларни даволашётгани аниқ.

- Ота-оналарнинг айтишларига қаранганд, бу сирли масхарабозлар шифохоналарнинг болалар бўлимида ёки ўйларда ўзларининг ғалати либосларида, кўпинча кўлларида шар кўтарган ҳолда тўсатдан пайдо бўлишади. Улар болалар-

Агар сиз билан бирор кимса гаплашмоқчи бўлса, у сизни албатта кечки овқатга ёки "Lunch"га таклиф қиласди. Сиз билан сұхбатлашиб, яқиндан та-

кечки пайт бирор кафеда ёки пищереядада официант бўлиб ишлаши мумкин. Чунки ҳар бир ўсмирнинг ўз машинаси бор, улар бензин пулени, ўз уст-бошини ўзлари харид қила оладилар. Ота-оналарига қарам бўлмай, мустақил равишда ўзларини ўзлари таъминлайдилар...

Ҳозирда мен Халқ Ҳўжалиги институтининг иқтисод факультетида 2-курсда сиртқи бўлимида ўқийман. INTERNEWSда таржимон бўлиб ишляяпман.

Мен Ўзбекистонлик ўйинқароқ ўкувчиларга қараб туриб, шуни ўйлайман. Уларнинг бир хатолари бор. Ўзида бор имкониятнинг қадрига етмайди. Олтинга тенг вақти ўтгандан кейин эса пушаймон бўлишади. Ўйиннинг ҳақиқийси улгайгандан сўнг, ҳамма нарсага эришгандан сўнг бўлади. Қўли хунарли, ўзи илмли, хотиржам ва етук бўлгандагина ўзига эрк бериш мумкин деб ўйлайман. Шуни унутмасликлари керакки, катталар доимо тўғри ва билиб гапири-



"Хақиқий индеенни жуда кўп изладим, лекин ҳеч ҳам топа олмаганимдан сўнг, мумдан ясалгани билан дўстлашиб қўявердим".

шади. Улар фарзандларидан натижага талаб қилишади. Натижага доимо мукаммал ва аъло бўлсин, дейман.

Муҳаррама ПИРМАТОВА ёзib олди.

Aжойибот-Гаройибот

туфайли уч ҳафта караҳтилик ҳолатига тушуб қолган 11 ёшли бола ҳузурига сирли мавжудотлар ташриф буюришган. Болакай уларни кўрмайтгани, эшитмаётганига қарамай, улар ҳар ҳил ўйинлар кўрсатишган ва кейин гойиб бўлишган. Улар қаердан келгани ва қаерга кетганини ҳеч ким пайқамаган. Бу томошадан бир неча соат ўтгандан кейингина бола ҳушига келган...

Лондонда юқ машинаси уриб кетган уч ёшли қизалоқ бир кечга мобайнинда ҳаёт-мамот орасида ётган. Бироқ тирилтириш палатасида кимлиги номаълум иккита масхарабоз пайдо бўлган ва эртаси куни шифокорлар ота-онасига бола омон қолиши ҳақидаги хушхабарни етказишган...

Африканинг Руанда деган жойида 5 ёшли иккита болага СПИД ташхиси кўйилган. Уларни ҳам сирли мавжудотлар кўриб кетишиган: натижада болалар танасида ўлим вирусининг изи ҳам маган. Кўпчиллик мутахассисларнинг фикрига кўра, бу масхарабозлар болалар кўрқмайдиган ва севадиган мавжудотлар қиёфасини олувчи фаришталарнинг ўзидир.

Ватиканинг олий доираларига мансуб бўлган ва ўз номини ошкор қилишни истамаган бир шахс бу сирли ҳодиса Рим Папасининг ўзи иштирокида ўтган ёпиқ йигилишда мұхокама қилингани ҳақида маълумот берди. Павлус II ўз фикрини айтмаган, бироқ йигилишида қатнашгандарнинг бари ҳодиса мўъжизавий кучларнинг иши эканига имон келтирган.

Жасур АБДУСАМАТОВ тайёрлади.

QIZIQCHI FARISHALAR

ни қизиқтиришга ҳар томонлама уринишида ва қанчалик тўсатдан пайдо бўлишса, шунчалик ногаҳонда гойиб бўлишади, - дейди лондонлик паранормал ҳодисалар тадқиқотчиси, 70 га яқин шундай воқеани ўрганиб чиқсан олим Колин Гвиндольм. - Шундай ташрифлардан кейин ҳатто энг оғир касалланган болалар ҳам шифо топиб кетишияти...

- Генуя (Италия) лик 38 ёшли Антония Димора Ватиканга ёзган мактубида беш йил мобайнинда лейкемия касаллигидан азоб чеккан 9 ёшли ўғли Рафаэл сирли масхарабозлар тифайли омон қолгани ҳақида ёзган. Она буни шундай таърифлайди:

- Рафаэл бир неча кун мобайнинда менга қандайдир масхарабозлар ҳақида гапириб беришга уринди, лекин мен буни шунчаки болалик хаёли ёки рӯё деб ўйлаб, ҳеч қандай эътибор бермадим. Бироқ бир куни ўғлимнинг хонасига кириб, у айтган масхарабозларни ўз кўзим билан кўрдим. Улар ниҳоятда эскича кийи-

ҳамон кула олишига шу муддат мобайнинида ишонч ҳосил қилдим.

Бир ҳафтадан кейин ўтказилган тестлар кичкинтой Рафаэл аста-секин тузала борганини кўрсатди. Антония эса ўғли узил-кесил шифо топиб кетганини кўрганидан кейин Ватиканга шу мўйизиза ҳақида ёзишга журъат қилди.

Олим Гвиндольм бу мўйизизага ишониш қийинлигини тан олади. Бироқ, далил-исботдан юз ўгириб бўлмайди: бу масхарабозларни нафақат бемор болаларнинг оналари, балки шифохона хизматчилари ҳам ўз кўзлари билан кўришган.

Мана энди Гвиндольм турли мамлакатлардан келган ахборотга асосланиб ёритган айрим воқеаларни кўриб ўтказилган. Яна шуни таъкидлаб ўтмоқ жоизки, бу ўринда олим касалликнинг тўлиқ тарихи - у бошланганидан то мўйизизавий даражада шифо топганича бўлган ҳолат ҳақидаги воқеаларнинг ўзинигина олган, холос...

Американинг Техас штатидаги Амалилло шаҳрида менингит




AFRIKA BOLALARI AZOBDA

«Nasroniy yordam» tashkilotining xabariga ko'ra, ayni vaqtida Afrikaning Sahroi Kabir hududlarida yashovchi 12 mln. bola ochlikdan va turli xavfli kasalliklardan azob chekmoqda. Ularning maktabga borib o'qishlari uchun davlat yaratgan sharoit ham, mablag' ham yo'q.

«Nasroniy yordam» tashkiloti butun dunyo boyalarini shu bechora 12 mln. Sahroi Kabir bolalariga moddiy yordam berishga chaqirdi.

Albatta bu gap to'g'ri, ma'lumki dunyoning ko'plab boyalar, milliarderlari ortiqcha pullarini bekordan bekorga, bo'lar bo'lmash bema'ni shou va tomoshalarga sarflashadi.

O'zbekiston bolalari, siz ozod yurtda, farovon, tinch va osuda hayotda yashayapsiz. Afrika bolalariga boqing, ular och, savodsiz, kasal, albatta rahmingiz keladi. Afrika bolalarini ko'rib, O'zbekiston bolalari hayotiga faqat va faqat shukronalar aysak arziydi.

**MADONNA GASTROLGA CHIQMOQCHI**

Asli italiyalik bo'lmish, lekin hozirda AQSh fuqarosi va shu yerda yashovchi mashhur qo'shiqchi Madonna uzoq tanaffusdan so'ng yana chet elga, gastrol safariga otlanishini aytdi.

Madonna 1993 yildan beri dunyo bo'yab konsert bermagan edi. Shu o'tgan 8 yil ichida Madonna so'bq eri bilan ajrashdi. So'ng yana turmushga chiqdi va qiz farzand ko'rdi. 2000 yilda Madonna o'sha qizining otasi bilan ham ajrashib, shu yilning o'zida yana turmushga chiqdi.

Madonna shu 2001 yilning yoz oylarida yuvropa, Janubiy va Shimoliy Amerika mamlakatlari bo'yab yangi konsert dasturini namoyish etmoqchi.

Madonna 18 ta shaharda konsert beradi. Uning 1 konserti Londonda boshlanib, oxirgisi Los-Anjelesda tugaydi.

Madonnaning yangi konsert dasturi «Cho'kib ketgan dunyo» deb ataladi.

Madonna o'z konsertini ona Vatani Italiyada ham namoyish etish niyatida. Italiyada Madonnani haqiqiy ismi bilan atashadi. Madonna ismi esa qo'shiqchining taxallusidir. Madonnaning haqiqiy ismi Luiza Chikone.

**DUNYONING ENG ISSIQLARI**

Agarda havo juda sovib ketsa, masalan, minus 10 gradus sovuq va undan yuqori bo'lsa yoki havo haddan tashqari isib ketsa, bu narsa insonlar, tabiat va jonivorlarga salbiy ta'sir etishi aniq. Shu sababli ob-havoning me'yorida, ya'ni juda sovuq ham emas, juda issiq ham emas bo'lgani ma'qul. Ammo, yer yuzida shu darajada dahshatli issiq bo'ladigan joylar borki, u yerda yashovchi odamlarga «matonatingizga qoyil!» - deyishdan boshqa ilojimiz yo'q. Yaqin tarixga nazar tashlab, yer yuzidagi qit'alar bo'yab, «dahshatli issiq» havolar kuzatilgan hududlarni ko'rib o'tamiz.

1 Eng yuqori issiq harorat Afrika qit'asida joylashgan Liviya cho'lidagi Aziziya qishlog'ida, 1922 yil sentyabrida 58 gradusdan oshgan. Bu - sayyoramizning «issiqlik qutbidir».

2 AQShdagagi «Ajal Vodiysi»da ham issiq 58 gradusgacha ko'tarilgan.

3 Yuvropa qit'asidagi Ispaniya va Kiprda hamda Janubiy Amerikada issiqlik harorati 47 gradusdan oshgan.

4 Osiyo qit'asida eng yuqori harorat Hindiston va Pokiston chegarasidagi Tar cho'lida 53 gradusga yetgan.

5 Avstraliya qit'asidagi ba'zi joylarda issiqlik harorati 54 gradusgacha yetgan.

6 Jonajon O'zbekistonimiz janubidagi Termiz shahrida harorat 50 gradusgacha ko'tarilgan paytlari ham bo'lgan.

Poytaxtimiz Toshkentda eng yuqori harorat 45 gradus bo'lgan.

7 So'nggi 20 yil ichida Turkmanistonning Mari va Chorjo'y oralig'idi Uchxoji qishlog'ida issiqlik haroratining 50 gradusga yetgani bir necha bor kuzatilgan.

Albatta sizlarda «axir yer yuzidagi eng issiq hududlar faqat qora qit'a bo'lmish Afrikada joylashgan-ku», degan e'tirozli fikr bo'lishi mumkin. Lekin yer yuzining hamma issiq joylari ham faqat Afrikada joylashmag'an.

Shunday bo'lsa-da, Afrikaning deyarli 95 foiz hududlarida eng yuqori haroratlar, ya'ni «dahshatli issiqlar» kuzatiladi.

DUNYO DARCHASI**RAMALLOHDA QOTILLIK**

Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'idagi Ramaloh shahrida 5 nafar Falastin politsiyachisi Isroil askarlarining artilleriya va havo hujumlari natijasida halok bo'ldi.

Isroil tomoni ushbu hujumni falastinliklarning Isroildagi terroristik harakatlariga javobligini aytди.

Oxirgi uch kun ichida Isroil tomoni tinimsiz ravishda Falastin aholisi yashaydigan hududlarni va Falastin mudofaa texnikalari, qurollari saqlanadigan binolarni, hukumat vakillari idoralarini havo hujumi hamda og'ir artilleriya orqali o'qqa tutmoqdalar.

DEHLIDA MAYMUN ODAM

Hindiston poytaxti Dehlida haqiqiy maymun odam paydo bo'ldi. Maymun odam 100 dan ortiq odamga hujum qilib, jarohat yetkazishga ulgurdi. Maymun odamning yuzini esa 200 ga yaqin odam ko'rgan va ular politsiya mahkamasida guvohlik bermoqdalar.

Dehlidagi yaqinidagi G'ozibod shaharchasida ham maymun odam 26 kishiga hujum qilib, ularni yaralagan.

Guvohlar bu mahluq haqiqiy maymun odam ekanligini va uning xavfli, tajovuzkorligini ta'kidlashmoqda.

